

ZAMONAVIY TA’LIM MUHITINI YARATISHDA RAHBARNING O‘RNI

Abdurahmonova Arzikul Mirzarayimovna

Toshkent viloyati Chirchiq shahar

25-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi direktori

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim muhitini shakllantirishda rahbar shaxsining tutgan o‘rni yoritilgan. Ta’lim muassasasidagi innovatsion yondashuvlar, interaktiv metodlar, ijtimoiy-psixologik muhit va o‘qituvchilarning kasbiy rivoji rahbarning faoliyati bilan chambarchas bog‘liqligi tahlil qilingan. Muallif rahbarning faqat nazorat qiluvchi emas, balki jamoani ilhomlantiruvchi, ta’lim sifatini oshiruvchi va zamonaviy texnologiyalarni joriy qiluvchi lider sifatidagi rolga urg‘u beradi. Shuningdek, maqolada samarali ta’lim muhiti yaratish uchun rahbarlar tomonidan qo‘llanilishi zarur bo‘lgan amaliy yondashuvlar to‘g‘risida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘z: *ta’lim muhit, rahbarlik, innovatsiya, pedagogik boshqaruv, o‘quv jarayoni, kasbiy rivojlanish, ta’lim sifati, liderlik.*

Ta’lim jamiyatning eng asosiy ustunlaridan biri bo‘lib, uning rivoji bevosita rahbar shaxsiga bog‘liqdir. Maktab, kollej yoki oliy ta’lim muassasasida qanday iqlim hukm surishi, o‘quvchilar va pedagoglar o‘rtasida qanday munosabat shakllanishi, o‘qitish jarayonining samaradorligi va natijadorligi rahbarning qarashlari, yondashuvi va boshqaruv madaniyatiga bog‘liq bo‘ladi. Aynan rahbar shaxs ta’lim muhitida ijobiy o‘zgarishlarni boshlab beruvchi, innovatsiyalarni joriy etuvchi, ustoz va o‘quvchilar o‘rtasidagi ishonchli munosabatni mustahkamlovchi yetakchi kuch sifatida maydonga chiqadi.

Bugungi kunda ta’lim sohasidagi islohotlar, zamonaviy texnologiyalarning kirib kelishi va o‘quvchilarning o‘zgarib borayotgan ehtiyojlari shuni ko‘rsatmoqdaki, rahbarlar endi faqat nazorat qiluvchi emas, balki yo‘naltiruvchi, ilhomlantiruvchi va strategik fikrlovchi liderga aylanishi zarur. U o‘z muassasasida sog‘lom ma’naviy muhit yaratishi, har bir xodim va o‘quvchining imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun sharoit yaratishi, shuningdek, hamkorlikka asoslangan ochiq boshqaruv tizimini shakllantirishi kerak. Bunday muhitni yaratishda rahbarning qarashlari, maqsadlari va kundalik faoliyati hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Bugungi ta’limda rahbar nafaqat hujjatlar ustida ishlovchi yoki tartib-qoidalarni nazorat qiluvchi shaxs, balki jamoani birlashtiruvchi, yangilik kiritishga undovchi va o‘qituvchilarga yo‘l ko‘rsatuvchi ilhom manbai sifatida faoliyat yuritishi lozim.

Rahbar o‘qituvchilarning kasbiy o‘sishi uchun doimiy rag‘batlantirish mexanizmlarini yo‘lga qo‘yishi, ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalarga o‘rgatishi, kasbiy rivojlanish uchun imkoniyat yaratishi lozim. Zero, o‘z ustida ishlaydigan, yangilikka intiluvchi pedagoglarga zamonaviy ta’lim talablariga javob bera oladi. Rahbarning bu yo‘ldagi yordami va yondashuvi pedagoglarni ruhlantiradi, natijada o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan qiziqishi ortadi, darslar samarador bo‘ladi.

Zamonaviy ta’lim muhitida rahbar o‘quvchilarning qobiliyatini yuzaga chiqarishga xizmat qiluvchi innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlashi, iqtidorli yoshlarni tanlab olishi va ular bilan tizimli ishlashi zarur. Bunda rag‘batlantirish, tanlovlar, ilmiy to‘garaklar va amaliy mashg‘ulotlarning tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Rahbar ana shunday tashabbuslarni ilgari suruvchi bo‘lsa, ta’lim muassasasi faqat nazariy bilim beruvchi joy emas, balki iqtidor va salohiyat rivojlanadigan makonga aylanadi.

Shuningdek, rahbar zamonaviy ta’lim vositalari, raqamli texnologiyalar, interaktiv platformalardan foydalanishni joriy etishda yetakchi rol o‘ynaydi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘quv jarayoniga to‘g‘ri kiritish, raqamli savodxonlikni oshirish, masofaviy ta’limni sifatli tashkil etish ham aynan rahbarning tashabbuskorligi va bilimdonligiga bog‘liq. U nafaqat mavjud imkoniyatlardan foydalanishi, balki yangi imkoniyatlarni yaratishga intilishi kerak.

Bundan tashqari, rahbar ta’lim jarayonida ijtimoiy-psixologik muhitni barqaror ushlab turuvchi shaxs sifatida ham faoliyat olib boradi. U o‘quvchilar va pedagoglar o‘rtasida muammolar yuzaga kelsa, ularni adolatli hal etishi, har bir insonning fikriga quloq tutishi, tenglik va o‘zaro hurmatni ta’minlashi zarur. Shunday muhitda ishtirok etayotgan har bir inson o‘zini qadrlangan va zaruriy bo‘g‘in sifatida his qiladi, bu esa umumiy samaradorlikka bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta’lim muhitini yaratishdagi eng muhim omillardan biri bu rahbar shaxsidir. U nafaqat boshqaruvchini, balki o‘z jamoasini ilhomlantiruvchi, maqsad sari yetaklovchi va har bir xodim va o‘quvchining salohiyatini ochishga xizmat qiluvchi lider sifatida maydonga chiqadi. Yaxshi rahbar bor joyda o‘sish, taraqqiyot, ijodkorlik va sifatli ta’lim mavjud bo‘ladi. Shunday ekan, har bir ta’lim muassasasida kuchli va zamonaviy fikrlaydigan rahbar bo‘lishi davr talabidir.

ADABIYOTLAR:

1. Xodjaev N., Sagdiev A., Rasulov U. Pedagogika: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 312 b.
2. Xasanboeva M., Abduazizova Z. Ta’lim muassasalarida boshqaruv va rahbarlik madaniyati. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021. – 144 b